



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 03 | pp. 360-366 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

QISHLOQ XO'JALIGI SUBYEKTLARIDA IQTISODIY TAHLILNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI



Yakubov Ulugbek Kasimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliyaviy tahlil" kafedrası professori, DSc.

Abdullayev Abror Bozarboyevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Moliyaviy tahlil" kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Maqolada qishloq xo'jalik sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Tahlil jayonida uning muhim axborot manbai sifatida namoyon bo'luvchi moliyaviy hisobotlar, mazkur hisobotlarda axborotlarni ochib berish tartibi, xususan, milliy va xalqaro standartlarda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati sifatida biologik aktivlarni tan olish va tahlilda foydalanish masalalari atroflicha muhokama qilingan. Qishloq xo'jaligi faoliyati tahlilining axborot manbalari, ularning tarkibiy qismlari mualliflik yondashuvlar asosida takomillashtirilgan.

Kalit so'zlar: dehqonchilik, chorvachilik, biologik aktiv, qishloq xo'jaligi, hosildorlik, mahsuldorlik, tannarx, biotransformatsiya, subsidiya.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА В СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Якубов Улугбек Касимович

Ташкентский государственный экономический университет
Профессор кафедры «Финансовый анализ»
доктор экономических наук, профессор

Абдуллаев Аброр Бозарбоевич

Ташкентский государственный экономический университет
Доцент кафедры «Финансовый анализ», к.э.н.

Аннотация: В статье раскрываются специфические аспекты. Экономического анализа хозяйствующих субъектов, осуществляющих деятельность в аграрном секторе. В ходе анализа были подробно рассмотрены финансовые отчёты, которые выступают важным источником информации, порядок раскрытия информации в этих отчётах, в частности признание биологических активов характеристикой сельского хозяйства в национальных и международных стандартах, а также использование биологических активов в анализе. На основе авторских подходов усовершенствованы информационные источники анализа сельскохозяйственной деятельности, их компоненты.

Ключевые слова: фермерство, животноводство, биологический актив, сельское хозяйство, урожайность, продуктивность, себестоимость, биотрансформация, субсидия.

ELABORATING ISSUES OF ECONOMIC ANALYSIS IN AGRICULTURAL ENTITIES

Yakubov Ulugbek Kasimovich

Tashkent State Economic University

Professor of the Department of Financial Analysis

Doctor of Economic Sciences, Professor

Abdullaev Abror Bozarboevich

Tashkent State Economic University

Associate Professor of the Department of Financial Analysis, Ph.D.

Abstract: The article reveals the specific aspects of the economic analysis of the activities of economic entities operating in the agricultural sector. In the course of the analysis, financial statements, which are an important source of information, the procedure for disclosing information in these reports, in particular, the issues of recognition and use in the analysis of biological assets as a characteristic feature of agriculture in national and international standards, are discussed in detail. Information sources for the analysis of agricultural activities, their components are improved based on the author's approaches.

Keywords: farming, livestock, biological asset, agriculture, yield, productivity, cost, biotransformation, subsidy.

Kirish.

Strategik tahlil va prognozlariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti 2025-yilda 6 foizga, 2026–2027-yillarda mos ravishda 6,1 foiz va 6,3 foizga o'sishi prognoz qilingan. Bunda, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 2025-yilda 4,1 foizni, 2026-yilda 4,2 foiz va 2027-yilda 4,3 foiz bo'lishi bashorat qilingan. Barqaror makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, bevosita, mamlakatdagi barcha tarmoqdagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, jumladan: qishloq xo'jaligi, savdo, qurilish tashkilotlarining ham mustaqil va moliyaviy barqaror faoliyat yuritishini taqozo etadi. Tahlil natijalariga ko'ra, Yalpi ichki mahsulot tarkibida: - xizmatlar sohasining ulushi 41 % dan; - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 24 % dan; sanoatning ulushi 26 % dan; qurilish tarmog'ining ulushi 6 % atrofida tashkil etadi [4].

Yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligining salmoqli ulushga egaligi, mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni, ayniqsa murakkab geosiyosiy va tashqi iqtisodiy vaziyatlarda ahamiyati yuqori. Shu boisdan, aksariyat vaziyatlarda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, tarmoqqa investorlarning jalb qilinishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug'i bilan 41-son, "Qishloq xo'jaligi" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti amaliyotga joriy etilgan. Mazkur standart: - qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid yerlar; -qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid hosildor o'simliklar; -hosildor o'simliklarga oid davlat grantlari; -qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid nomoddiy aktivlar; - qishloq xo'jaligi faoliyatiga oid yerlarning ijarasidan kelib chiqadigan foydalanish huquqidagi aktivlarga nisbatan qo'llanmaydi. Standart: - biologik aktivlar; qishloq

xo'jaligi mahsulotlarini yig'ish; -qishloq xo'jaligiga davlat subsidiyalariga qo'llaniladi. Ta'kidlash kerakki, 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ib olgandan so'ng amal qilmay, jarayon boshqa standart asosida hisobga olinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

"Qishloq xo'jaligi" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartida qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari sifatida:

-biologik aktivlarning biotransformatsiyaga qodir bo'lishi (urug'ni ekish, etishtirish, oziqlantirish, yig'ib olish jarayoni);

-qishloq xo'jaligi faoliyatining boshqarilishi (suv havzasida baliq yetishtirish qishloq xo'jaligi hisoblanadi, ammo daryo, okeanlardan baliq ovlash bundan mustasno);

-biotransformatsiyadan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o'zgarishlari qishloq xo'jaligini boshqarish jarayonining bir qismi sifatida muntazam ravishda nazorat qilinishi va o'lchanishi (naslning o'sishidagi o'zgarishlarning kuzatilishi, buzoqlar vaznining ortishini ham baholanishi) belgilangan.

R.Radjabov, R.Dustmuratov, A.Sotivoldiyev: - qishloq xo'jaligi korxonalarining o'ziga hos tomonlariga to'xtalib, dehqonchilik va chorvachilikda hususiyatlaridan kelib chiqib tannarh, ishlab chiqarish resurslari hisobini yoritib o'tgan [8, 10].

Sh.Raxmonov, A.Xamraliev: - qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini tahlil qilishda geoaxborot tizimlarini qo'llash masalasiga e'tibor qaratishgan [9].

D.Mamadiyarov: - "Dehqonchilik - bu bevosita inson va jonli hayvonlar tomonidan iste'mol qilinadigan, ishlab chiqarishga moddiy asos bo'lib hisoblanadigan o'simliklar, ekinlar, xomashyo va materiallarni yetishtirish (ishlab chiqish) bilan bog'liq jarayonlar majmuasi. Chorvachilik deganda mahsulot va nasl beradigan barcha jonli hayvonlarni yetishtirish bilan bog'liq jarayonlar majmuasi tushuniladi" deb, dehqonchilik va chorvachilik sohalarining buxgalteriya hisobi obyektlari sifatidagi xususiyatlariga to'xtalgan [7].

A.Vahobov, A.Ibragimov, U.Yakubov: - qishloq xo'jaligini dehqonchilik va chorvachilikdan iboratligini ta'kidlagan holda, biznes subyekti faoliyatining o'ziga hos hususiyatlarini mavzular doirasida yoritib o'tgan [6].

Mavzu doirasida monografik kuzatuv, iqtisodiy - biznes tahlil metodlaridan foydalanilgan holda qishloq xo'jalik subyektlari faoliyatini tahlili tizimlashtirilgan.

Natijalar.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qishloq xo'jaligida faoliyat yurityvchi biznes syb'ektlarida iqtisodiy tahlilni tasniflanishi, biznes tahlilini o'tkazishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy va yslybiy tavsiyalarda ifodasini topgan. Qishloq xo'jaligi sub'ektlari faoliyatini tahlilini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida: "Istiqlol" va "Abu Fotix Agro" fermer xo'jaliklarining faoliyatini baholashda foydalanilgan [11].

Natijada, "Istiqlol" va "Abu Fotix Agro" fermer xo'jaliklarining faoliyatini bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish va samarali boshqaruv qarorlari qabul qilishga erishilgan. Xususan:

1. Biologik aktivlar tahlilida:

1.1. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish hamda ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarning tahlili;

1.2. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini sotish va unga ta'sir etuvchi omillar tahliliga binoan xulosa tayorlash.

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yig'ishni tahlilida:

2.1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarhini tahlili va hulosa tayorlash;

2.2. Qishloq xo'jaligida sifat ko'rsatkichlarini tahlili.

3. Qishloq xo'jaligi subyektlarida davlat subsidiyalari va boshqa manbalar tahlilida:

3.1. Qishloq xo'jaligiga davlat subsidiyalarini tahlili;

3.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotini sotish bo'yicha davlat buyurtmasining bajarilishini tahlili asosida xulosa tayorlash;

3.3. Qishloq xo'jaligini moliyaviy holatini tahliliga binoan mablag'lar manbai samaradorligini baholash.

Tahlil jarayonida qonun va qonun osti, tabiiy-ekologik, texnik va boshqa shu kabi manbalardan ham keng foydalaniladi.

Boshqa manbaalar tarkibi biznes subyektining ustavi, reja va prognoz ko'rsatkichlari aks ettirilgan xujjatlardan tashkil topgan. Qishloq xo'jaligining ustavida faoliyat turi, ustavi, mablag'lar manbai to'g'risida ma'lumotlar olinadi. Uning biznes rejasida kelgusi davrlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumotlar umumlashtiriladi. Reja va prognoz ma'lumotlari qishloq xo'jaligi boshqaruvchisini maqsadga erishishini ta'minlashda, biznes samaradorligini va moliyaviy holatini yaxshilashda eng muhim dastak sifatida qaraladi.

Qishloq xo'jaligi subyekti faoliyatini tahlilida tabiiy-ekologik ma'lumotlar muhim manbaa hisoblanib, tarmoqning o'ziga hos xususiyatini belgilaydi. (1-chzma).

Qishloq xo'jaligi subyekti faoliyatini 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartida keltirilganidek uch yo'nalishda kompleks tahlilini yo'lga qo'yish, mulk egalari va investorlarni asosli axborotlar bilan ta'minlaydi.

Muhokama.


Biologik aktivlar tahlilida biznes subyektining dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qaysi usul (ekstensiv yoki intensiv)dan foydalanib etishtirishga e'tibor qaratgani o'rganiladi.

Biologik aktivlarni sotish jarayonida:

- qishloq xo'jaligi, xususan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini tovarlilik darajasi baholanadi;

- dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini o'rtacha navlilik darajasi baholanadi;

- dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini o'rtacha sotish bahosi o'rganiladi.



1-chizma. Qishloq xo'jaligi subyekti faoliyatini tahlilida axborot manbai¹.

¹ Muallif ishlanmasi.

Tannarhini tahlilida har bir soʻmlik dehqonchilik yoki chorvachilik mahsulotlariga toʻgʻri kelgan xarajatlar (X) aniqlanib, ularning yillar boʻyicha dinamik oʻzgarishi baholanadi.

$$X = \frac{\text{Qishloq xoʻjaligi mahsuloti tannarxi}}{\text{Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari}}$$

Qishloq xoʻjaligida sifat koʻrsatkichlarini tahlilida:

- hosildorlik (H);

$$H = \frac{\text{Dehqonchilik mahsuloti}}{\text{Dehqonchilik mahsulotlari etishtirilgan er maydoni}}$$

- mahsuldorlik (M).

$$M = \frac{\text{Chorvachilik mahsuloti}}{\text{Chorva soni}}$$

Davlat grantlari turli shartlarda taqdim etiladi. Grant - biznes subyektidan maʼlum shartlarni talab etishi hamda belgilangan muddatga beriladi. Grant shartlari va muddatiga amal qilmaslik uning qaytarishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, davlat granti muddat oʻtmaguncha foyda yoki zararda tan olinmaydi.

Qishloq xoʻjaligi subyektlarida davlat subsidiyalari va boshqa manbaalar tahlilda avvalo: - moliyaviy hisobotlarda tan olingan davlat grantlarining xarakteri va miqdori; - davlat grantlari boʻyicha bajarilmagan shartlar va boshqa kutilmagan holatlar; - davlat grantlari hajmida kutilayotgan ahamiyatli kamayishlar baholanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining "Oʻzbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS) "Xoʻjalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qoʻllash boʻyicha yoʻriqnoma"ni tasdiqlash toʻgʻrisida"gi 2024 yil 14 noyabrdagi 191 - son buyrugʻi bilan 8810 – Grantlarda hisobga olib boriladi hamda oʻz mablagʻlari manbai sifatida moliyaviy hisobotlarda aks ettiriladi.

Xulosa.

Aktivning haqqoniy qiymati faol bozorda belgilangan narx asosida baholanadi. Faol bozor deganda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini savdosini olib boradigan birja, yarmarka yoki mahalliy bozorlar tushuniladi [3]. Faol bozorsiz 41-sonli "Qishloq xoʻjaligi" nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standarti qoidalarini qoʻllash juda qiyin. Shu sababdan, bialogik aktivlarni haqqoniy qiymati turli usullardan fydalanib aniqlayadi. Xususan, ahamiyatli xususiyatlari (yosh yoki sifati)ga koʻra guruhlash orqali, birlashgan aktivlarga nisbatan va boshqa shu kabilar.

Qishloq xo'jaligi subyekting faoliyatini kompleks tahlili uch yo'nalish konsepsiyasidan foydalanish taklif etildi. Ko'rsatkichlar tizimi: "Biologik aktivlar; "Hosili yig'ib olinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari"; "Qishloq xo'jaligiga davlat subsidiyalari" tahlili nuqtai-nazaridan guruhlariga ajratilib, faoliyatni umumiy baholashga erishilgan. Muvozanatni saqlash uchun har bir ko'rsatkichning alohida yo'nalishi bo'yicha rivojlanishiga ta'sir kuchini hisobga oladigan og'irliklar tizimi taklif etilgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i.
2. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining "O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS) "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ni tasdiqlash to'g'risida"gi 2024 yil 14 noyabrdagi 191 - son buyrug'i.
3. Аверчев И. В. МСФО-2012. Комментарии и практика применения. Приложение к журналу "Бухгалтерский учет". – № 11. – 2012. – М.: Редакция журнала "Бухгалтерский учет", 2012. – Ч. 1. 552 с.
4. Budjetnoma 2025-2027. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
5. Buxgalteriya hisobining 41-sonli "Qishloq xo'jaligi" xalqaro standarti.
6. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Yakubov U.Q. "Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari". – T.; 2004. - 404 b.
7. Mamadiyarov D.U. Qishloq xo'jalik korxonalarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari. "Globalashuv va iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: muammo va yechimlar" Respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2024 yil 15 – may.
8. Radjapov R., Dustmurotov R.. "Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi". Nukus. Bilim, 1995 y..
9. Raxmonov Sh., Xamraliev A.. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini tahlil qilishda geoaxborot tizimlarini qo'llash. Agro ilm – O'zbekiston qishloq va suv xo'jalig. 2019.
10. Sotvoldiyev A. "Qishloq xo'jaligi korxonalarida buxgalteriya hisobi". T.; 1991 y.
11. Yakubov U., Abdullayev A. Modeling of The Analysis of The Financial State of The Business Entity. - Journal of Management and Economics, 2025.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

